Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidor fenomenining pedagogik-psixologik mohiyati, uning aniqlanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtidor va iste'dod tushunchalarining mazmuniy farqlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda rivojlanish darajalari pedagogika va psixologiya fanlari nuqtayi nazaridan yoritilgan. Biologik, ijtimoiy va faoliyatli yondashuvlar asosida iqtidor muammosiga oid mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilinib, faoliyatli yondashuvning maktabgacha ta'lim amaliyotidagi ustun jihatlari asoslab berilgan. Maqolada maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari, bolaning individual-psixologik omillari (qiziqish, ehtiyoj, motivatsiya), ijtimoiy muhit (oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tengdoshlar) hamda tarbiyachi faoliyatining iqtidor rivojiga ta'siri keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, iqtidor, iste'dod, iqtidorli bolalar, faoliyatli yondashuv, pedagogik-psixologik omillar, individual rivojlanish, ta'lim muhiti, tarbiyachi faoliyati, ijtimoiy muhit.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the phenomenon of giftedness in preschool children and the factors influencing its identification and development from pedagogical and psychological perspectives. The conceptual differences between giftedness and talent, their interrelation, and levels of development are examined within the framework of contemporary pedagogical and psychological research. Based on biological, social, and activity-based approaches, existing scientific views on the problem of giftedness are analyzed, and the advantages of the activity-based approach in preschool education practice are substantiated. The paper highlights the psychological characteristics of preschool age, the influence of individual psychological factors (interests, needs, motivation), the social environment (family, preschool educational institutions, peers), and the professional activities of educators on the development of giftedness.

Key words: preschool age, giftedness, talent, gifted children, activity-based approach, pedagogical and psychological factors, individual development, educational environment, educator activity, social environment.

Аннотация: В статье с научно-педагогических и психологических позиций анализируется феномен одарённости у детей дошкольного возраста, а также факторы, влияющие на её выявление и развитие. Рассматриваются содержательные различия между понятиями "одарённость" и "талант", их взаимосвязь и уровни развития в контексте педагогических и психологических исследований. На основе биологического, социального и деятельностного подходов проанализированы существующие научные взгляды на проблему одарённости, а также обоснованы преимущества деятельностного подхода в практике дошкольного образования. В статье раскрываются психологические особенности дошкольного возраста, влияние индивидуально-психологических факторов ребёнка (интересы, потребности, мотивация), социальной среды (семья, дошкольная образовательная организация, сверстники), а также профессиональной деятельности воспитателя на развитие одарённости.

Ключевые слова: дошкольный возраст, одарённость, талант, одарённые дети, деятельностный подход, педагогико-психологические факторы, индивидуальное развитие, образовательная среда, деятельность воспитателя, социальная среда.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 30- sentabrdagi "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-346-sonli¹ qarori iqtidorni aniqlash va rivojlantirish masalasining davlat miqyosida strategik ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etadi. Mazkur hujjatda yosh avlodning ilmiy-intellektual salohiyatini erta bosqichlardan qo'llab-quvvatlash, ularning bilishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishini rag'batlantirish, izlanish va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb etish zarurligi alohida ta'kidlanadi^[1]. Bu jihatlar maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari, ya'ni bolada qiziqishning kuchliligi,

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7145231>



bilishga ochiqlik, tez o'rganish va moslashuvchanlik kabi omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu davrda iqtidor kurtaklarini aniqlash va rivojlantirish pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida shaxsning intellektual, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini erta aniqlash hamda rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolalarda namoyon bo'ladigan iqtidor fenomenini to'g'ri talqin etish va unga ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvni ishlab chiqish pedagogika va psixologiya fanlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois iqtidor tushunchasining mazmun-mohiyati, uning pedagogika va psixologiya fanlaridagi o'rni hamda vazifalarini aniqlash ushbu tadqiqotning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya fanida iqtidor tushunchasi, avvalo, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Rus psixologi B.M. Teplov iqtidorni qobiliyatlarning rivojlanganligi va o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan individual sifat ^[13] sifatida baholab, u faqat faoliyat jarayonida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, iqtidor bilim va ko'nikmalarning yig'indisi emas, balki ularni tez va samarali egalashga imkon beruvchi psixik imkoniyatlar majmuasidir.

S.L. Rubinshteyn iqtidorni shaxs faoliyatining muvaffaqiyatliliigi bilan bevosita bog'liq hodisa ^[13] sifatida ko'rib, uni rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida faoliyatni e'tirof etadi. Unga ko'ra, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy tajribani faol o'zlashtirish jarayonida amalga oshadi, demak, iqtidor ham tashqi ta'sirlar va ichki imkoniyatlar o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

G'arb psixologiyasida ham iqtidor tushunchasi keng qamrovli hodisa sifatida o'rganilgan. Jumladan, J. Gifford iqtidorni intellektual tuzilmaning ko'p o'lchovli modeli orqali izohlab, uni faqat akademik muvaffaqiyat bilan cheklash noto'g'ri ^[6] ekanligini ta'kidlagan. H. Gardner esa iqtidorni ko'p qirrali intellekt nazariyasi asosida musiqiy, muloqotga oid, fazoviy, jismoniy va boshqa yo'nalishlarda namoyon bo'lishi mumkinligini ^[5] ko'rsatadi.

Pedagogika fanida iqtidor tushunchasi psixologik talqindan farqli ravishda rivojlantiriladigan pedagogik hodisa sifatida qaraladi. Pedagogik yondashuvlarda iqtidor shaxsning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan va izchil takomillashib boradigan sifati sifatida izohlanadi. Bu yerda asosiy e'tibor iqtidorni aniqlashdan ko'ra, uni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga qaratiladi.

O'zbekistonlik olim M.G. Davletshin iqtidorni shaxsning faoliyatda yuqori natijalarga erishishini ta'minlovchi individual imkoniyatlar majmui sifatida baholab, uni maqsadli pedagogik ta'sir orqali rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa iqtidor maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin, bilish va ijodiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan potensial imkoniyat sifatida talqin qilinmoqda ^[3]. Shu asosda aytish mumkinki, psixologiyada iqtidor asosan shaxsning individual-psixik xususiyati sifatida o'rganilsa, pedagogikada u maqsadli ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiriladigan hodisa sifatida talqin etiladi. Bu esa iqtidorni rivojlantirishda faoliyatli yondashuvning ilmiy-pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Iqtidor – bu psixikaning tizimli sifati bo'lib, u insonga bir yoki bir nechta sohada boshqalardan ustun holda yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi potensial yuqori qobiliyatlarni ifodalaydi. Iqtidor tug'ma mayllar, yuqori darajadagi motivatsiya, faoliyatdan qoniqish olish hamda uni takomillashtirishga intilishning uyg'un birikmasi bo'lib, u iste'dodni rivojlantirish imkoniyatini ta'minlaydi, biroq muvaffaqiyatning kafolati hisoblanmaydi. Vikipediya manbalarida iqtidor tushunchasi shunday izohlanadi: iqtidor – bu shaxsda potensial jihatdan yuqori intellekt ko'effitsiyenti (IQ) va yuksak qobiliyatlarning mavjudligidir; shuningdek, iqtidor muayyan faoliyat yoki bir nechta turdagi faoliyatda yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi tug'ma imkoniyatlar yoki tug'ma imkoniyatlar kombinatsiyasi sifatida talqin qilinadi, masalan, musiqiy iqtidor.

O'zbek tilining izohli lug'atida "iqtidor" tushunchasi kuch-quvvat, qudrat; qodirlik, qobiliyat; holat sifatida ta'riflanadi [8]. Pedagogika va psixologiya fanlarida bolalarning individual rivojlanishini tadqiq etishda iqtidor va iste'dod tushunchalari muhim ilmiy kategoriyalar sifatida qaraladi. Ushbu tushunchalar o'zaro bog'liq bo'lishiga qaramay, mazmuni va rivojlanish darajasiga ko'ra farqlanadi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda iqtidor shaxsda mavjud bo'lgan tug'ma yoki erta shakllanuvchi, qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ichki salohiyat sifatida talqin etiladi. U bolaning bilishga bo'lgan qiziquvchanligi, tez o'zlashtirish qobiliyati, nostandart fikrlashi hamda faol o'yin va o'quv jarayonidagi ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Iqtidor insonga muayyan faoliyatda muvaffaqiyatni kafolatlamaydi, balki ushbu muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi. Iste'dod esa tug'ma qobiliyat bo'lib, u mahorat va tajriba ortishi jarayonida yuzaga chiqadi. Iqtidor ko'p hollarda yashirin xarakterga ega bo'lib, uni aniqlash va rivojlantirish uchun maqsadli pedagogik tashxis, qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti hamda individual yondashuv talab etiladi.



Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bola iqtidorining rivojlanishi tabiiy rivojlanish omillari bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, ta'lim mazmuni va pedagogik ta'sir samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Iste'dod iqtidor asosida shakllanib, muayyan faoliyat turida yuqori darajadagi natijalarga erishish orqali namoyon bo'ladigan rivojlangan qobiliyat sifatida izohlanadi. U bolaning intellektual, ijodiy, badiiy, jismoniy yoki ijtimoiy sohalaridagi muvaffaqiyatlari, original yondashuvi hamda barqaror qiziqishlari orqali ifodalanadi. Iste'dodning shakllanishi uzluksiz ta'lim, tizimli mashg'ulotlar va pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, iqtidor iste'dodning shakllanishi uchun zarur bo'lgan potensial asosni tashkil etsa, iste'dod ushbu salohiyatning maqsadli rivojlantirilishi natijasida yuzaga keladigan yuqori darajadagi qobiliyat sifatida qaraladi. Demak, bolalar iste'dodini rivojlantirishda, avvalo, ularning iqtidorini o'z vaqtida aniqlash, qo'llab-quvvatlash hamda individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm: Iqtidor va iste'dod tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda rivojlanish bosqichlari.

Iqtidor turlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. **Umumiy (intellektual) iqtidor** – bolaning aqliy rivojlanish darajasi tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'lishi bilan tavsiflanadi. Masalan, 5–6 yoshli bola ertakni bir marta eshitib, mazmunini to'liq qayta hikoya qiladi, sabab va oqibat bog'lanishlarini tushuntirib bera oladi, mantiqiy savollarga tez va aniq javob qaytaradi.
2. **Maxsus (akademik) iqtidor** – bolaning muayyan bilim sohasiga bo'lgan qobiliyatining yaqqol namoyon bo'lishidir. Masalan, bola sanashni 100 gacha bemalol bajaradi, oddiy qo'shish-ayirish amallarini mustaqil amalga oshiradi yoki yangi so'zlarni tez o'zlashtirib, chet tilidagi so'z va iboralarni to'g'ri talaffuz qiladi.
3. **Ijodiy iqtidor** – bolaning noodatiy fikrlashi, yangicha g'oyalar ilgari surishi va mustaqil yechim topa olishi bilan namoyon bo'ladi. Masalan, bola qurilish kublaridan tarbiyachi ko'rsatmasisiz o'ziga xos inshootlar yasaydi, oddiy buyumlardan yangi o'yinlar o'ylab topadi yoki ertakka noodatiy yakun taklif qiladi.
4. **Badiiy iqtidor** – san'at faoliyatiga bo'lgan kuchli qiziqish va estetik did bilan bog'liq qobiliyatdir. Masalan, bola musiqani eshitib ohangni tez yodlab oladi, kuyni to'g'ri takrorlaydi, rasm chizishda ranglarni uyg'un tanlaydi va tasvir orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalay oladi.
5. **Psixomotor iqtidor** – harakat faoliyatining yuqori darajada rivojlanganligi bilan ifodalanadi. Masalan, bola raqs mashqlarini tez o'zlashtiradi, murakkab harakatlarni muvofiqlashtira oladi, sport o'yinlarida chaqqonlik va epchillikni namoyon etadi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida iqtidor muammosi ko'p yillardan buyon ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib kelinmoqda. Mazkur muammoning mohiyatini anglashda turli nazariy yondashuvlar shakllangan



bo'lib, ular orasida biologik, ijtimoiy va faoliyatli yondashuvlar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Biologik yondashuv iqtidorni asosan irsiy omillar bilan bog'liq holda izohlaydi.

Ushbu yondashuv vakillari (F. Galton, K. Byuler, A. Bine va boshqalar) iqtidorni tug'ma nerv-psixik xususiyatlar, miyaning funksional imkoniyatlari hamda genetik meros bilan izohlashadi. Ularning fikriga ko'ra, bola tug'ilgan paytdanoq ma'lum qobiliyatlar potensialiga ega bo'ladi va bu salohiyat rivojlanish uchun biologik asos vazifasini bajaradi. Biroq mazkur yondashuv iqtidor rivojida ta'lim-tarbiya va ijtimoiy muhitning rolini yetarlicha ochib bera olmagan sababli zamonaviy ilmiy qarashlarda cheklangan deb baholanadi. Ijtimoiy yondashuv iqtidorning shakllanishi va rivojlanishini asosan ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya hamda madaniy omillar bilan bog'liq holda talqin etadi. Ushbu yondashuvda bolaning oilasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagogik ta'sirlar va ijtimoiy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblanadi.


L. S. Vygotskiy, A. V. Zaporozets, D. B. Elkonin kabi olimlar iqtidor rivojini bolaning ijtimoiy tajribani egallashi va kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyati orqali tushuntiradilar. Faoliyatli yondashuv iqtidorni bolaning faoliyati jarayonida shakllanuvchi va rivojlanuvchi psixologik tuzilma sifatida talqin etadi.

Ushbu yondashuv A. N. Leontev, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin ilmiy qarashlariga asoslanadi. Unga ko'ra, iqtidor tayyor holatda namoyon bo'lmaydi, balki turli faoliyat turlari – o'yin, muloqot, ijodiy va bilish faoliyati jarayonida rivojlanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat turi hisoblangan o'yin faoliyati bolaning iqtidorini yuzaga chiqarish va rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Faoliyatli yondashuvning ustun jihati shundaki, u bolani passiv bilim oluvchi emas, balki faol subyekt sifatida qaraydi. Maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat turi bo'lgan o'yin jarayonida bolaning qiziqishi, tashabbuskorligi, muammoni mustaqil hal qilish qobiliyati va ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Aynan shu jarayonda iqtidorning dastlabki belgilari tabiiy va erkin namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, faoliyatli yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ushbu yondashuvlar bir-birini inkor etmasdan, balki integrativ yondashuv asosida talqin qilinmoqda. Ya'ni iqtidor tug'ma salohiyat va ijtimoiy-pedagogik sharoitlarning o'zaro ta'siri natijasida faoliyat jarayonida rivojlanadigan murakkab psixologik hodisa sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtidorliligi qobiliyatlarni rivojlantirishga bo'lgan yuqori salohiyat bo'lib, u yorqin qiziquvchanlik, bilishga intilish, nostandart fikrlash hamda o'yin va ta'lim jarayonidagi faollikda namoyon bo'ladi. Biroq iqtidorlilik ko'p hollarda yashirin bo'ladi va maxsus qo'llab-quvvatlashni talab etadi. U intellektual, ijodiy, badiiy yoki boshqa shakllarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lib, tabiat va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirga bog'liq holda rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtidori turli sohalarda namoyon bo'ladi: ijodiy (rasm chizish, musiqa, teatr), intellektual (mantiqiy fikrlash, nutq, hisoblash), jismoniy (harakat muvofiqligi, sport), ijtimoiy (yetakchilik, hamdardlik, muloqot) va texnik (konstruktorlar, mexanizmlar) ^[14]. Ushbu jihatlarni bolaning o'yini, erkin ijodiy faoliyati va qiziqishlarini tizimli kuzatish orqali aniqlash mumkin. Shu bilan birga, tajriba o'tkazish uchun qulay sharoit yaratish, iqtidorlarni bosimsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda rivojlantirish muhim bo'lib, bolalik quvonchi hamda umumiy ko'nikmalar ahamiyatini unutmaslik lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidor namoyon bo'lishining asosiy ko'rinishlariga quyidagilar kiradi.



2-rasm: Bolaning rivojlanish sohalari va iqtidor tarkibiy komponentlari

1. **Intellektual:** Axborotni tez o'zlashtirish va tahlil qilish, bilimdonlik, murakkab masalalarni yechish qobiliyati, kuchli xotira.
2. **Ijodiy:** Tafakkurning o'ziga xosligi, noodatiy g'oyalar, muammolarni hal etishda kreativ yondashuv.
3. **Qiziquvchanlik:** Bilimlarni faol izlash, ko'plab savollar berish, tajriba o'tkazishga intilish.
4. **Bilish faolligi:** Atrof-muhitga chuqur qiziqish, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilish.
5. **Psixomotor:** Harakat faolligining yuqoriligi, muvofiqlashtirish (koordinatsiya), sport yutuqlariga intilish.
6. **Ijtimoiy:** Ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, hamdardlik (empatiya) ko'rsatish qobiliyati.

Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorining rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u har doim ham bir maromda kechavermaydi. Ilmiy tadqiqotlarda iqtidorli bolalar rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri sifatida notekis (disgarmonik) rivojlanish holati qayd etiladi. Bunda bolaning bir sohadagi yuqori darajadagi qobiliyati boshqa bir sohadagi rivojlanishning nisbatan sustligi bilan birga namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, bola intellektual jihatdan tengdoshlaridan ancha ilgari ketgan bo'lsa-da, ijtimoiy moslashuv yoki hissiy-o'zini boshqarish ko'nikmalarida qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli mavjud. Ushbu holat iqtidorli bolalar bilan ishlashda kompleks va muvozanatli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Iqtidorning yana bir muhim jihati uning yashirin xarakterga ega bo'lishidir. Maktabgacha yosh davrida bolaning iqtidorligi har doim ham aniq natijalar yoki yuqori ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'lavermaydi. Ko'pincha u bolaning savollarga boyligi, kuzatuvchanligi, o'yin jarayonidagi noodatiy yechimlari yoki mustaqil fikrlashga intilishi orqali bilvosita ifodalanadi. Iqtidorning ochilishi ko'p jihatdan ta'lim muhitining qanday tashkil etilganiga, pedagogik rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liq bo'ladi. Noqulay yoki cheklangan muhit sharoitida bolaning yuqori salohiyati uzoq vaqt davomida namoyon bo'lmay qolishi mumkin. Shuningdek, iqtidorli bolalarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri zerikishga moyillikdir. Ular bir xil, takroriy va intellektual jihatdan sust faoliyatlardan tez charchaydi, diqqatini uzoq vaqt saqlab tutolmasligi yoki beqarorlikni namoyon etishi mumkin. Bu holat ko'pincha noto'g'ri talqin qilinib, intizomsizlik yoki tarbiyaviy muammo sifatida baholanadi. Aslida esa, bu bolaning yuqori kognitiv ehtiyojlari yetarli darajada qondirilmayotganidan dalolat beradi. Shu sababli, iqtidorli bolalar bilan ishlashda ularning bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda mazmunan boy, variativ va rivojlantiruvchi faoliyat turlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorining namoyon bo'lishi va rivojlanishida ota-onalar va pedagoglarning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Avvalo, ular tomonidan ijodiy va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish zarur. Bunday muhit bolaning erkin fikrlashi, savollar berishi, tajriba o'tkazishi va mustaqil faoliyat yuritishiga imkon beradi. Rivojlantiruvchi o'yinlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar va erkin tanlovga asoslangan mashg'ulotlar iqtidorning ochilishiga xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2025-yil 8-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 423-sonli² Qarorida pedagog shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablar, uning bilim, ko'nikma va malakalari bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash hamda qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish, bolalarning qobiliyatlarini kuzatish va monitoring qilish, interfaol va innovatsion metodlarni qo'llash kabi kompetensiyalar pedagogning iqtidorni erta aniqlash va rivojlantirishdagi yetakchi rolini belgilab beradi. Kasbiy standartda bolaning psixologik xavfsizligi, mustaqilligi, ijodkorligi va izlanish faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maktabgacha yosh davrining psixologik sezgirligi va rivojlanish sur'atlari bilan uzviy bog'liqdir ^[2].

Iqtidorli bolalar bilan ishlashda bolaning shaxsini shartsiz qabul qilish va hurmat qilish muhim pedagogik tamoyil hisoblanadi. Bolaning qobiliyatlarini faqat yutuqlar yoki natijalar orqali baholash emas, balki uning individualligini, qiziqishlari va ehtiyojlarini tan olish talab etiladi. Haddan tashqari talabchanlik, bosim yoki yuqori kutilmalar bolaning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtidor rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar va pedagoglar tomonidan psixologik erkinlik va tanlash imkoniyatini ta'minlash iqtidor rivojining muhim sharti hisoblanadi. Bola o'ziga qiziqarli faoliyatni tanlash, mustaqil qaror qabul qilish va xatolarga yo'l qo'yish huquqiga ega bo'lishi lozim. Aynan shu jarayonda u o'z imkoniyatlarini sinab ko'radi va ichki salohiyatini to'liq namoyon eta boshlaydi. Iqtidorli bolalarni tarbiyalashda nafaqat intellektual, balki hissiy-ijtimoiy rivojlanishga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Empatiya, hamdardlik, hamkorlik, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish bolaning barkamol shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlaydi. Bu jihatlar iqtidorning ijtimoiy jihatdan foydali va barqaror namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixik rivojlanishida eng sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladigan bosqichlardan biridir. Bu davrda kognitiv (bilish), emotsional, nutqiy va ijtimoiy jarayonlar jadal rivojlanadi. Ya'ni, tafakkur konkret-obrazli shaklga o'tadi, xotira, diqqat, tasavvur kabi psixik jarayonlar mustahkamlanadi hamda

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7618066>



so'z boyligi ortadi. Shuningdek, bola atrofdagilar bilan muloqot qilish, his-tuyg'ularini boshqarish va ijtimoiy munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarini egallaydi. Bu davrda bolaning hissiy barqarorligi, mustaqilligi va o'ziga ishonchi oshadi, u o'z fikrlarini aniq ifodalashni boshlaydi. Psixik rivojlanish jarayoni bolaning keyingi ta'lim va ijtimoiy moslashuvi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Iqtidorli bolalar o'rtacha rivojlanadigan tengdoshlariga nisbatan ba'zan juda erta va jadal rivojlanish belgilarini namoyon etadilar.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtidorli bolalar ko'pincha nutq, xotira, e'tibor almashinuvi hamda murakkab muammolarni hal etish qobiliyatlari bo'yicha tengdoshlardan farq qiladi. Iqtidorning erta belgilariga quyidagilarni misol sifatida ko'rsatib o'tish mumkin: nutq va xotira jadalligi, keng qiziqish va mustaqil o'rganishga intilish, kognitiv jarayonlarning ilg'orligi. Shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtidor notekis rivojlanishi va yashirin xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bu esa pedagoglar va ota-onalardan bolaning individual xususiyatlarini diqqat bilan kuzatish, uning qiziqishlarini rag'batlantirish va shaxsga mos faoliyat turlarini tashkil etishni talab qiladi. Natijada, iqtidorli bolalarni tarbiyalashda kompleks, individual va faoliyatga yo'naltirilgan intellektual yondashuvlar samarali bo'ladi.

XULOSA

Umuman olganda, iqtidor maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida asosiy intellektual va psixologik kategoriyalardan biri sifatida qaraladi, uning aniqlanishi va rivojlanishi esa shaxsning intellektual, ijodiy, ijtimoiy va hissiy salohiyatini to'liq ochish uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-346-sonli Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7145231>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 423-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7618066>
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
4. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum, 2000.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1999.
6. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
7. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. I harfi / 10 jildli. Beshinchi jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E. Begmatov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 265 b.
9. Абдуллина Г.А. Maktabgacha ta'lim pedagogikasida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2018.
10. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. – М.: Академия, 2002.
11. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999.
12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002.
13. Теплов Б.М. Способности и одарённость. – Москва: Педагогика, 1985.
14. <https://leoni.land/articles/kak-opredelit-i-razvit-sposobnosti-i-talanty-rebenka>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.